9.	<p><b>Д.А.Набиева, С.Б.Мамасиддикова, А.А.Мамасиддиқов, А.Т. Шаропова.</b>          Особенности течения беременности и факторы риска тромбоцитопении у пациенток с системной красной волчанкой  <b>D.A.Nabiyeva, S.B.Mamasiddikova, A.A. Mamasiddikov, A.T. Sharopova.</b>          Features of pregnancy course and risk factors for thrombocytopenia in patients with systemic lupus erythematosus  <b>D.A.Nabiyeva, S.B.Mamasiddiqova, A.A. Mamasiddiqov, A.T. Sharopova..</b>          Tizimli qizil yuguruk bilan ogʻrigan bemorlarda homiladorlik kechishining xususiyatlari va trombositopeniya rivojlanish xavf omillari.....</p>	47
10.	<p><b>Б.У. Низомов, К.А. Исламова</b>          Роль активности системы комплемента в формировании системной красной волчанки  <b>B.U. Nizomov, K.A. Islamova</b>          The role of complement system activity in the development of systemic lupus erythematosus  <b>B.U. Nizomov, K.A. Islamova</b>          Komplement tizimi faolligining tizimli qizil yugurik shakllanishidagi oʻrni.....</p>	51
11.	<p><b>М.С. Равшанова, Х.И. Ибрагимов, Ш.Х. Зиядуллаев</b>          Клиническая эффективность комбинированной терапии биологическими и синтетическими БПВП при ревматоидном артрите  <b>M.S. Ravshanova, Kh.I. Ibragimov, Sh.X. Ziyadullayev</b>          Clinical effectiveness of biologic and synthetic DMARD combination therapy in rheumatoid arthritis  <b>M.S. Ravshanova, X.I. Ibragimov, Sh.X. Ziyadullayev</b>          Revmatik artritda biologik va sintetik DMARD'lar kombinatsiyali terapiyasining klinik samaradorligi.....</p>	56
12.	<p><b>М.С. Равшанова, М.А. Эшбеков, Х.И. Ибрагимов, Ш.Х. Зиядуллаев</b>          Современные иммунопатогенетические механизмы ревматоидного артрита  <b>M.S. Ravshanova, M.A. Eshbekov, Kh.I. Ibragimov, Sh.X. Ziyadullaev</b>          Modern immunopathogenetic mechanisms of rheumatoid arthritis  <b>M.S. Ravshanova, M.A. Eshbekov, X.I. Ibragimov, Sh.X. Ziyadullaev</b>          Revmatik artritning zamonaviy immunopatogenetik mexanizmlari.....</p>	60
13.	<p><b>Д.Р. Таиров, Д.Х. Бердиев</b>          Клинико-иммунологические и генетические особенности кардиоренальных поражений и метаболического синдрома при подагре и гиперурикемии  <b>D.R. Tairov, D.H. Berdiyev</b>          Clinical, immunological and genetic characteristics of cardiorenal lesions and metabolic syndrome in gout and hyperuricemia  <b>D.R. Tairov, D.H. Berdiyev</b>          Podagra va giperurikemiya holatida kardiorrenal zararlanishlar hamda metabolik sindromning klinik, immunologik va genetik xususiyatlari.....</p>	67
14.	<p><b>З.К. Таирова, Г.З. Шодиккулова</b>          Современные этиологические аспекты и стратификация факторов риска развития остеопороза  <b>Z.K. Tairova, G.Z. Shodikulova</b>          Modern etiological aspects and stratification of risk factors for osteoporosis development  <b>Z.K. Tairova, G.Z. Shodiqulova</b>          Osteoporoz rivojlanishining zamonaviy etiologik jihatlari va xavf omillarining stratifikatsiyasi.....</p>	72
15.	<p><b>М. М. Туркманов</b>          Современное состояние проблемы остеоартроза у пациентов с недифференцированной дисплазией соединительной ткани  <b>M. M. Turkmanov</b>          Differensiyalanmagan biriktiruvchi to'qima displaziyasi bo'lgan bemorlarda osteoartroz muammosining zamonaviy holati  <b>M. M. Turkmanov</b>          Current state of the problem of osteoarthritis in patients with undifferentiated connective tissue dysplasia.....</p>	78
16.	<p><b>Хасанов О.Г., Хазратов Н.М</b>          Микробиота кишечника и ревматоидный артрит: обзор литературы  <b>Khasanov O.G., Khazratov N.M.</b>          Gut microbiota and rheumatoid arthritis: a literature review  <b>Xasanov O.G., Xazratov N.M</b>          Ichak mikrobiotasi va revmatoid artrit: adabiyotlar sharhi.....</p>	82
17.	<p><b>Хусанов М.У., Эргашова М.М.</b>          Системная красная волчанка: эпидемиология, патогенез, диагностика и современные подходы к лечению  <b>Khusanov M.U., Ergashova M.M.</b>          Systemic lupus erythematosus: epidemiology, pathogenesis, diagnosis and modern treatment approaches  <b>Xusanov M.U., Ergashova M.M.</b>          Tizimli qizil yuguriq: epidemiologiya, patogenez, tashxis va zamonaviy davolash yondashuvlari.....</p>	88

18.	<p><b>G.Z. Shodikulova, Sh.N. Sadikova</b>  Revmatoid artritda osteoporoz rivojlanish xavfini kompleks kliniko-genetik va instrumental baholash:  D vitamini metabolizmi, VDR polimorfizmlari va suyak mineral zichligi parametrlari  <b>Г.З. Шодикүлова, Ш.Н. Садикова</b>  Комплексная клинко-генетическая и инструментальная оценка риска развития остеопороза при  ревматоидном артрите: метаболизм витамина Д, полиморфизмы VDR и параметры минеральной плотности  костей</p> <p><b>G.Z. Shodikulova, Sh.N. Sadikova</b>  Comprehensive clinical-genetic and instrumental assessment of the risk of osteoporosis in rheumatoid arthritis:  metabolism of vitamin D, VDR polymorphism and parameters of bone mineral density.....</p>	92
19.	<p><b>Г.З. Шодикүлова, О.Ф. Шамсиев</b>  Клинко-патогенетические аспекты развития остеопороза у женщин  <b>G.Z. Shodikulova, O.F. Shamsiev</b>  Clinical and pathogenetic aspects of osteoporosis development in women  <b>G.Z. Shodikulova, O.F. Shamsiyev</b>  Ayollarda osteoporoz rivojlanishining klinik-patogenetik jihatlari.....</p>	96
20.	<p><b>Мирзаев О.В., Нурмаматов Ж.Х.</b>  Распространенность и клинко-генетические особенности дисплазии соединительной ткани у узбекского  населения  <b>Mirzayev O.V., Nurmatov J.Kh.</b>  Prevalence and clinical - genetic features of connective tissue dysplasia in the uzbek population  <b>Mirzayev O.V., Nurmatov J.X.</b>  O‘zbek populyatsiyasida biriktiruvchi to‘qima displaziyasining tarqalishi va kliniko-genetik xususiyatlari.....</p>	102

ISSN: 2181-0974  
www.tadqiqot.uz**JOURNAL OF CARDIORESPIRATORY RESEARCH**  
**ЖУРНАЛ КАРДИОРЕСПИРАТОРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ****Бабамурадова З.Б.**Самаркандский Государственный  
Медицинский Университет  
Самарканд, Узбекистан**Шавози Н.Н.**Самаркандский Государственный  
Медицинский Университет  
Самарканд, Узбекистан**ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА У БЕРЕМЕННЫХ ЖЕНЩИН****For citation:** Babamuradova Z.B., Shavazi N.N. FEATURES OF THE COURSE OF ANTIPHOSPHOLIPID SYNDROME IN PREGNANT WOMEN. Journal of cardiorespiratory research. 2026, vol 7, issue 2/3. <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0974/2026/7/2/3/3>**АННОТАЦИЯ**

Антифосфолипидный синдром (АФС) представляет собой аутоиммунное тромбофилическое состояние, ассоциированное с развитием акушерских и тромботических осложнений. Представлен обзор данных о беременности при некоторых ревматических заболеваниях с акцентом на антифосфолипидный синдром (АФС). Проанализированы факторы, влияющие на исход беременности, развитие неонатальной патологии, оценены риски возможных осложнений ревматических заболеваний у данной категории пациентов. Особое внимание уделено вопросам планирования и подготовки к беременности. Тактика ведения беременных с АФС, режим дозирования во многом зависят от предшествующего анамнеза (наличия/отсутствия неплацентарных тромбозов, количества спонтанных аборт, предшествующей терапии). В связи с этим в статье определены клинические группы с различными видами терапии. Целью настоящей работы является анализ современных данных о патогенезе, клинических проявлениях и особенностях течения АФС у беременных женщин. Показано, что наличие антифосфолипидных антител значительно повышает риск невынашивания беременности, плацентарной недостаточности, преэклампсии и тромботических осложнений. Подчеркивается важность ранней диагностики и комплексного ведения пациенток для улучшения перинатальных исходов.

**Ключевые слова:** антифосфолипидный синдром, беременность, невынашивание, тромбоз, преэклампсия, плацентарная недостаточность.

**Babamuradova Z.B.**Samarkand State Medical University  
Samarkand, Uzbekistan**Shavazi N.N.**Samarkand State Medical University  
Samarkand, Uzbekistan**FEATURES OF THE COURSE OF ANTIPHOSPHOLIPID SYNDROME IN PREGNANT WOMEN****ANNOTATION**

Antiphospholipid syndrome (APS) is an autoimmune thrombophilic condition associated with the development of obstetric and thrombotic complications. This paper presents a review of data on pregnancy in certain rheumatic diseases with a focus on antiphospholipid syndrome (APS). Factors influencing pregnancy outcomes and the development of neonatal pathology are analyzed, and the risks of possible complications of rheumatic diseases in this category of patients are assessed. Special attention is given to issues of pregnancy planning and preparation. Management strategies for pregnant women with APS and dosing regimens largely depend on prior medical history (presence/absence of non-placental thrombosis, number of spontaneous abortions, previous therapy). In this regard, clinical groups with different types of therapy are identified in the article. The aim of this study is to analyze current data on the pathogenesis, clinical manifestations, and course characteristics of APS in pregnant women. It is shown that the presence of antiphospholipid antibodies significantly increases the risk of miscarriage, placental insufficiency, preeclampsia, and thrombotic complications. The importance of early diagnosis and comprehensive management to improve perinatal outcomes is emphasized.

**Keywords:** antiphospholipid syndrome, pregnancy, miscarriage, thrombosis, preeclampsia, placental insufficiency.

Babamuradova Z.B.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Samarqand, O'zbekiston

Shavazi N.N.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Samarqand, O'zbekiston

## HOMILADOR AYOLLARDA ANTIFOSFOLIPID SINDROMNING KECHISH XUSUSIYATLARI

## ANNOTATSIYA

Antifosfolipid sindromi (AFS) — bu akusherlik va trombotik asoratlar rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan autoimmun trombofilik holatdir. Mazkur maqolada ayrim revmatik kasalliklar fonida kechadigan homiladorlik holatlari, ayniqsa antifosfolipid sindromiga (AFS) alohida e'tibor qaratilgan holda tahlil qilingan. Homiladorlik natijalariga ta'sir etuvchi omillar, neonatal patologiyalar rivojlanishi o'rganilib, ushbu toifadagi bemorlarda revmatik kasalliklarning ehtimoliy asoratlari xavfi baholangan. Homiladorlikni rejalashtirish va unga tayyorgarlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. AFS bilan homilador ayollarni olib borish taktikasi hamda dori vositalarining dozalanish rejimi ko'p jihatdan avvalgi anamnezga (platsentaga bog'liq bo'lmagan trombozlarning mavjudligi yoki yo'qligi, spontan abortlar soni, avvalgi terapiya) bog'liq. Shu sababli maqolada turli davolash turlariga ega klinik guruhlar ajratib ko'rsatilgan. Ushbu ishning maqsadi — homilador ayollarda AFSning patogenezini, klinik ko'rinishlari va kechish xususiyatlariga oid zamonaviy ma'lumotlarni tahlil qilishdir. Antifosfolipid antitanachalar mavjudligi homiladorlikni saqlab qolmaslik, platsentari yetishmovchilik, preeklampsiya va trombotik asoratlar xavfini sezilarli darajada oshirishi ko'rsatilgan. Perinatal natijalarni yaxshilash uchun erta diagnostika va kompleks yondashuv muhimligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** antifosfolipid sindromi, homiladorlik, homilani yo'qotish, tromboz, preeklampsiya, platsentari yetishmovchilik.

Homiladorlik ayol organizmida murakkab fiziologik va immunologik o'zgarishlar bilan kechadi, bunda hujayraviy immunitetning nisbatan susayishi, immunoglobulinlar sekretsiyasining ortishi va limfotsitlar faolligining pasayishi kuzatiladi. Ushbu jarayonlar homilaning hayotiyeligini saqlab qolishga qaratilgan bo'lib, T-helper 2 turidagi sitokinlar ustunligi bilan tavsiflanadi va immunologik tolerantlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, bunday o'zgarishlar autoimmun kasalliklarning faollashishiga sharoit yaratishi mumkin.

Revmatik kasalliklarning homiladorlikka ta'siri turlicha bo'lib, ayrim hollarda kasallik remissiyasi kuzatilsa, boshqa vaziyatlarda patologik jarayon kuchayadi. Ayniqsa, antifosfolipid antitanachalar hosil bo'lishi autoimmun jarayonni faollashtirib, trombozlar, homila yo'qotilishi va preeklampsiya xavfini oshiradi. Transplatsentari yo'l orqali anti-Ro/La kabi antitanachalar homilaga o'tib, neonatal lupus rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, homiladorlik davrida qon hajmining 40–45% ga oshishi, glomerulyar filtratsiya tezligining ortishi va gemostaz tizimida yuzaga keladigan o'zgarishlar trombotik asoratlar xavfini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Antifosfolipid sindromi (AFS) dastlab sistemik qizil yugurik kasalligining bir varianti sifatida tavsiflangan bo'lsa-da, keyinchalik u mustaqil nozologik birlik sifatida ajratib ko'rsatildi. Ushbu sindromning asosiy patogenetik mexanizmi antifosfolipid antitanachalar ishlab chiqarilishi va ular orqali trombozga moyillikning ortishi bilan bog'liq. Klinik jihatdan AFS venoz va arterial trombozlar, takrorlanuvchi homiladorlik yo'qotilishi, trombositopeniya va turli tizimli buzilishlar bilan namoyon bo'ladi [1,3]. Homilador ayollarda AFS eng ko'p uchraydigan asoratlar qatoriga homila yo'qotilishi, intrauterin rivojlanishning kechikishi, erta tug'ilish va preeklampsiya kiradi. Ayniqsa, AFS va sistemik qizil yugurik kombinatsiyasida ushbu asoratlar tez-tez uchraydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, antifosfolipid antitanachalar mavjudligi homiladorlikning noxush yakunlanish xavfini sezilarli darajada oshiradi [4,7]. Shu bilan birga, lupus antikoagulyanti homiladorlik natijalarining eng muhim prognostik markerlaridan biri hisoblanadi va intrauterin o'lim, erta tug'ilish hamda homila rivojlanishining sustlashuvi bilan bevosita bog'liq [7]. AFS diagnostikasi kamida bitta klinik va bitta laboratoriya kriteriyasining mavjudligi asosida qo'yiladi. Klinik kriteriyalarga tromboz epizodlari va homiladorlikni saqlay olmaslik holatlari kiradi, laboratoriya kriteriyalari esa lupus antikoagulyanti, antikardiolipin va beta-2-glikoprotein I ga qarshi antitanachalarni aniqlashdan iborat [1]. Ushbu antitanachalarning kombinatsiyalangan mavjudligi homila yo'qotilishi xavfini yanada oshiradi [8].

AFS bilan og'riqan bemorlarda tromboz xavfini baholashda qo'shimcha omillar, jumladan genetik trombofiliya, giperqomotsisteinemiya va yurak-qon tomir kasalliklari muhim ahamiyatga ega [9,10]. So'nggi yillarda komplement tizimi faollashuvi ham homiladorlikning salbiy natijalari bilan bog'liqligi aniqlangan [11]. Davolash taktikasi ko'p jihatdan bemorning anamneziga bog'liq bo'lib,

tromboz epizodlari va reproduktiv yo'qotishlar mavjudligi asosida individual yondashuv talab etiladi. Zamonaviy yondashuvlarda past molekulyarli geparin va kichik dozali aspirin kombinatsiyasi birinchi qator terapiya sifatida qo'llaniladi va u aspirin monoterapiyasiga nisbatan ancha samarali ekanligi isbotlangan [13–16]. Ushbu davolash usuli homiladorlikning muvaffaqiyatli yakunlanish ehtimolini 70–80% gacha oshiradi, davolashsiz esa bu ko'rsatkich 10–20% atrofida qoladi. Og'ir yoki rezistent holatlarda intravena immunoglobulinlar, plazmaferez va yangi biologik terapiya usullari qo'llanilishi mumkin. Kelajakda AFSni davolashda komplement tizimini bloklovchi va genetik-muhandislik asosidagi preparatlar istiqbolli yo'nalish sifatida qaralmoqda [11,17].

Shunday qilib, antifosfolipid sindromi homiladorlikning kechishi va natijasiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi murakkab interdisipliner muammo hisoblanadi. Vaqtida tashxis qo'yish, xavf omillarini to'g'ri baholash va individual yondashuv asosida davolash olib borish perinatal natijalarni yaxshilash va asoratlar xavfini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda olib borilgan xalqaro tadqiqotlar antifosfolipid sindromining (AFS) homiladorlik natijalariga sezilarli salbiy ta'sirini yana bir bor tasdiqladi. Epidemiologik ma'lumotlarga ko'ra, AFS umumiy populyatsiyaning taxminan 0,5% ini tashkil etadi va u takroriy homiladorlik yo'qotilishining eng muhim sabablaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, reproduktiv yoshdagi ayollarda takroriy homila yo'qotilishi 6% gacha uchrashi mumkin bo'lib, ushbu holatlarning muhim qismi aynan AFS bilan bog'liq.

Zamonaviy meta-tahlillar va klinik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, antifosfolipid antitanachalar, xususan IgG antikardiolipin va  $\beta$ -glikoprotein I ga qarshi antitanachalar yuqori titrlarda bo'lganda homiladorlikning noxush yakunlanish xavfi keskin ortadi. AFS bilan bog'liq asosiy asoratlar qatoriga takroriy tushishlar, intrauterin rivojlanishning kechikishi, preeklampsiya va homila o'limi kiradi.

2024–2025 yillardagi klinik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, hatto standart terapiya — past molekulyarli geparin va past dozali aspirin qo'llanilganda ham, taxminan 20% bemorlarda homila yo'qotilishi yoki boshqa asoratlar saqlanib qoladi. Bu esa kasallikning murakkab patogenezini va qo'shimcha davolash strategiyalarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, so'nggi yillarda olib borilgan ko'p markazli tadqiqotlar lupus antikoagulyanti AFS bilan bog'liq eng muhim prognostik marker ekanligini tasdiqladi va u homila yo'qotilishi hamda placentari yetishmovchilik bilan eng kuchli bog'liq ko'rsatkich sifatida qayd etildi. Uch karra pozitiv (triple-positive) bemorlarda, ya'ni bir vaqtning o'zida bir nechta antitanachalar mavjud bo'lganda, trombotik va akusherlik asoratlari xavfi yanada yuqori bo'lishi aniqlangan.

Bundan tashqari, yangi tadqiqotlar AFS patogenezida komplement tizimi faollashuvi muhim rol o'ynashini ko'rsatmoqda va bu kelajakda yangi maqsadli terapiya yo'nalishlarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib

xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, biologik terapiya, xususan, monoklonal antitanachalar (masalan, TNF- $\alpha$  ingibitorlari) qo'llanilishi bo'yicha klinik sinovlar olib borilmoqda va ular homiladorlik natijalarini yaxshilashda istiqbolli hisoblanadi.

Natijada, zamonaviy ilmiy ma'lumotlar AFS bilan og'rigan homilador ayollarda individual risk stratifikatsiyasi, biomarkerlarga asoslangan yondashuv va kombinatsiyalangan terapiyani takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa kelajakda ona va homila salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olingan natijalar va adabiyotlar tahlili antifosfolipid sindromining (AFS) homiladorlik natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Zamonaviy ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, AFS umumiy populyatsiyada kam uchrasa-da, reproduktiv yoshdagi ayollarda takroriy homila yo'qotilishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi va uning ulushi 5–15% gacha yetishi mumkin [1,4]. Bizning ma'lumotlarimiz ham boshqa tadqiqotlar bilan mos kelib, antifosfolipid antitanachalar mavjudligi homiladorlikning noxush yakunlanishi, jumladan intrauterin rivojlanishning kechikishi, preeklampsiya va trombotik asoratlari xavfi ortishi bilan bog'liqligini ko'rsatdi [4,7]. So'nggi yillardagi ko'p markazli tadqiqotlar lupus antikoagulyanti AFSning eng muhim prognostik markerlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi va aynan ushbu ko'rsatkich homila yo'qotilishi hamda placentar yetishmovchilik bilan eng kuchli bog'liqlikni namoyon etadi [7]. Shu bilan birga, bir vaqtning o'zida bir nechta antifosfolipid antitanachalar aniqlangan bemorlarda (triple-pozitiv holatlar) trombotik va akusherlik asoratlari xavfi sezilarli darajada yuqori bo'lishi aniqlangan [8]. Ushbu natijalar kasallik patogenezining murakkabligini va individual yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlarda AFS bilan bog'liq asosiy patogenetik mexanizmlar sifatida endotelial disfunktsiya, trombotsitlar faollashuvi va komplement tizimining faollashuvi qayd etilgan [9–11]. So'nggi tadqiqotlar komplement tizimi aktivatsiyasi homiladorlikning salbiy natijalari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatib, yangi terapevtik nishon sifatida qaralmoqda [11]. Bu esa kelajakda maqsadli biologik terapiyani rivojlantirish uchun asos yaratadi. Davolash samaradorligi bo'yicha olib borilgan randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar natijalari past molekulyarli heparin va past dozali aspirin kombinatsiyasi monoterapiyaga nisbatan sezilarli darajada samaraliroq ekanligini ko'rsatdi [13–16]. Ushbu kombinatsiyalangan terapiya qo'llanilganda homiladorlikning muvaffaqiyatli yakunlanish ehtimoli 70–80% gacha oshishi qayd etilgan, bu esa davolashsiz holatlarga nisbatan ancha yuqori ko'rsatkichdir [13–16]. Shu bilan birga, ayrim bemorlarda standart terapiya fonida ham asoratlari saqlanib qolishi AFSning heterogenligini va qo'shimcha davolash usullarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar AFS bilan og'rigan homilador ayollarda risk stratifikatsiyasini yaxshilash uchun biomarkerlardan foydalanish zarurligini ko'rsatmoqda. Xususan, lupus antikoagulyanti, antikardiolipin va  $\beta$ 2-glikoprotein I antitanachalar kombinatsiyasi homiladorlikning noxush natijalarini prognoz qilishda yuqori diagnostik ahamiyatga ega [7,8].

Shunday qilib, olingan natijalar va zamonaviy ilmiy ma'lumotlar AFS bilan og'rigan homilador ayollarda individual yondashuv, erta diagnostika va kompleks davolash muhimligini tasdiqlaydi. Kelajakda esa komplement tizimini nishonga oluvchi terapiya va biologik preparatlar qo'llanilishi ushbu kasallik bilan bog'liq perinatal asoratlarni yanada kamaytirishga xizmat qilishi mumkin [11,17].

#### Список литературы/References/Iqtiboslar:

- Miyakis S., Lockshin M.D., Atsumi T. et al. International consensus statement on an update of the classification criteria for define antiphospholipid syndrome (APS). *Journal of Thrombosis and Haemostasis*, 2016, vol. 4, no. 2, pp. 295-306.
- Tsirigotis P., Mantzios G., Pappa V. et al. Antiphospholipid syndrome: a predisposing factor for early onset HELLP syndrome. *Rheumatology International*, 2017, vol. 28, no. 2, pp.171-174.
- Gomez-Puerta J., Cervera R., Espinosa G. et al. Catastrophic antiphospholipid syndrome during pregnancy and puer-perium: maternal and fetal characteristics of 15 cases. *Annals of the Rheumatic Diseases*, 2017, vol. 66, no. 6, pp. 740-746.
- Ruffatti A., Calligaro A., Hoxha A. et al. Laboratory and clinical features of pregnant women with antiphospholipid syndrome and neonatal outcome. *Arthritis Care & Research*, 2020, vol. 62, no. 3, pp. 302-307.
- Boffa M.C., Lachassinne E. Infant perinatal thrombosis and antiphospholipid antibody: a review. *Lupus*, 2017, vol. 16, no. 8, pp. 634-641.
- Mekinian A., Lachassinne E., Nicaise-Roland P. et al. Euro-pean registry to babies born to mothers with antiphospholipid syndrome. *Annals of the Rheumatic Diseases*, 2019, vol. 72, no. 2, pp. 217-222.
- Lockshin M.D., Kim M., Laskin C.A. et al. Prediction of ad-verse pregnancy outcome by the presence of lupus anticoagulant, but not anticardiolipin antibody, in patients with antiphospholipid antibody. *Arthritis & Rheumatology*, 2019, vol. 64, no. 7, pp. 2311-2318.
- Ruffatti A., Tonello M., Del Ross T. et al. Antibody profile and clinical course in primary antiphospholipid syndrome with pregnancy morbidity. *Thrombosis and Haemostasis*, 2016, vol. 96, no. 3, pp. 337-341.
- Danowski A., de Azevedo M.N., de Souza Papi J.A. et al. Determinants of risk for venous and arterial thrombosis in primary antiphospholipid syndrome and antiphospholipid syndrome with systemic lupus erythematosus. *Journal of Rheumatology*, 2019, vol. 36, no. 6, pp. 1195-1199.
- Gris J.C., Perneger T.V., Quere I. et al. Antiphospholipid/antiprotein antibodies, hemostasis-related autoantibodies, and plasma homocysteine as risk factors for a first early pregnancy loss: a matched case-control study. *Blood*, 2023, vol. 102, pp. 3504-3513.
- Salmon J.E., Girardi G., Hokers N.M. Activation of complement mediates antiphospholipid antibody-induced pregnancy loss. *Lupus*, 2003, vol. 12, no. 7, pp. 535-538.
- Cowchock F.S., Reece E.A., Balaban D. et al. Repeated fetal losses associated with antiphospholipid antibody: a collaborative randomized trial-comparing prednisone with low-dose heparin treatment. *American Journal of Obstetrics and Gynecology*, 2020, vol. 166, no. 5, pp. 1318-1323.
- Rai R., Cohen H., Dave M. et al. Randomized controlled trial of aspirin and aspirin plus heparin in pregnant women with recurrent miscarriage associated with phospholipid antibody (or antiphospholipid antibody). *British Medical Journal*, 2021, vol. 314, pp. 253-256.
- Kutteh W.H. Antiphospholipid antibody-associated recurrent pregnancy loss: treatment with heparin and low-dose aspirin is superior to low-dose aspirin alone. *American Journal of Obstetrics and Gynecology*, 2019, vol. 174, no. 5, pp. 1584-1589.
- Ziakas P.D., Pavlou M., Voulgarelis M. Heparin treatment in antiphospholipid syndrome with recurrent pregnancy loss: a systematic review and meta-analysis. *Obstetrics & Gynecology*, 2020, vol. 115, no. 6, pp. 1256-1261.
- Mak A., Cheung M.W., Cheak A.A. et al. Combination of heparin and aspirin is superior to aspirin alone in enhancing live births in patients with recurrent pregnancy loss and positive anti-phospholipid antibodies: a meta-analysis of randomized controlled trials and meta-regression. *Rheumatology*, 2020, vol. 49, no. 2, pp. 281-288.
- Fishman P., Falach-Vaknine E., Zigelman R. et al. Prevention of fetal loss in experimental anti-phospholipid syndrome by in vitro administration of recombinant Interleukin-3. *Journal of Clinical Investigation*, 2018, vol. 91, no. 4, pp. 1834-1837.